

JADID DRAMALARIDA OBRAZLAR PSIXOLOGIYASI

Nurboy Jabborov Abdulhakimovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universiteti, O`zbek tili va adabiyoti kafedراسи mudiri, Filologiya fanlar doktori, professor.

Ubaydulloyeva Vazira Azimjon qizi,

Toshkent viloyati, Chirchiq shahar Chirchiq pedagogika universiteti, Gumanitar fanlar fakulteti I bosqich magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada dramalarning tarixan shakllanishi, jadidlar davrida ma'rifat o`chog`i bo`lgan dramalarning siyosat yo`lidagi kuchli qurolga aylanishi. Obrazlar va ularning psixologiyasi, davr nuqtai nazaridan ularning xarakteridagi o`zgarishlaridagi sabablarni yoritishga harakat qilinadi.

Kalit so`zlar: drama, jadid, obraz, psixologiya, ma'rifat, islohot, tuzum, teatr, trupa, ziyoli, islohot.

ПСИХОЛОГИЯ ОБРАЗОВ В СОВРЕМЕННЫХ ДРАМАТИКАХ

Нурбой Джаббаров Абдулхакимович Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы, доктор филологических наук, профессор.

Убайдуллаева Вазирсы Азимжон кизи, Магистрант I ступени Чирчикского педагогического университета, факультет гуманитарных наук, г. Чирчик Ташкентской области.

Аннотация: В этой пословице историческое становление драм, превращение драм, бывших центром просвещения в Новое время, в мощное политическое оружие. Делается попытка пролить свет на причины изменения характера образов и их психологии с точки зрения эпохи.

Ключевые слова: драма, современность, образ, психология, просвещение, реформа, система, театр, труппа, интеллигент, реформа.

PSYCHOLOGY OF IMAGES IN JADID DRAMAS

Nurboy Jabbarov Abdulhakimovich Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoiy, Head of the Department of Uzbek Language and Literature, Doctor of Philology, Professor.

Ubaydullayeva Vazira Azimjon qizi I st stage master's student of Chirchik Pedagogical University, Faculty of Humanities, Chirchik city, Tashkent region.

Annotation: In this proverb, the historical formation of dramas, the transformation of dramas, which were the center of enlightenment in modern times, into a powerful political weapon. An attempt is made to shed light on the reasons for the changes in the character of images and their psychology from the point of view of the period.

Key words: drama, modernity, image, psychology, enlightenment, reform, system, theater, troupe, intellectual, reform.

Drama-(yun.drama-harakat) badiiy adabiyotning uch asosiy turi (lirika va epos bilan birga)dan biri:asosan dialog-personajlarning o`zaro so`zlashuvi shaklida muallif nutqi aralashtirilmay yozilgan sahna asrlaridan iborat deb yozilgan O`zbek tili izohli lug`atida. Dramalar quyidagi davrlarni bosib o`tgan har bir davr o`ziga xos uslubda,g`oyada namoyish etilgan.

Dramalar sharqda bundan yigirma ikki asrdan oldinroq paydo bo`lgan bo`lib, dastlabki ko`rinishlari ov marosimlarida namoyish etilgan, insonlar hayvon terilarini kiyib raqsga tushishgan bu esa sahna asarlarining dastlabki bir ko`rinishi hisoblanadi.

Keyingi bosqichi asosan diniy ko`rinishlarda namoyon bo`lgan .Masalan zardushtiylik dinidagi Axriman va Axuramazdaning janglari.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda teatr san'ati shakllangan, bu davrda diniy marosim, musiqa, o'yinlar, xalq qahramonlik o'yinlari, kulgu va pahlavonlik o'yinlari namoyish etilgan.

Miloddan avvalgi IV asrga kelib teatr madaniyatida yangi shakllar paydo bo'ldi bu jarayon Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bog'liq bo'lib, bosib olganidan keyin Markaziy Osiyoni yunon madaniyatini olib kirdi. Yunon teatrlariga o'xshab anfiteatrlar qurildi. Uning o'limidan keyin bo'linib ketgan davlatlarda ham bu an'ana davom etdi, bunga qazilma ishlari guvohlik beradi.

Masxarabozlik va qiziqchilik teatri mavjud bo'lgan. Professor M.Qodirov shunday ta'rif beradi: "bir zamonlar bu tushunchalar "masxara", "muqallid shaklida ifoda qilingan. Ularda o'ziga xos dramaturgiya bor, qahramonlar qiyofasini o'z qobilyati, aqli, mijozi, hissiyoti, tanasi, xarakatlari gavdalantiruvchi aktiyorlar bor, ularning o'yinlaridan zavqlana oladigan tomoshabinlar bor – qo'yingki, teatr san'atining barcha alomatlari muhayyo. Bu teatrning hozirgi zamon teatridan ayirmasi shundaki, uning maxsus binosi va sahnasi yo'q, xalq aktyorlari o'z spektakllarini istagan vaqtda, turli sharoitlarda gir atrofi tomoshabinlar bilan qurshalgan o'ziga xos xalqa –"sahna"da ko'rsatib ketaverganlar... Ammo masxarabozlik va qiziqchilik – bu xalqni marosimlari urf-odatlari bilan tutashib ketgan ibtidoiy teatr emas, balki og'zaki an'anadagi professional teatrdir".¹

Arablar bostirib kiringunga qadar an'anaviy xalq teatrlari o'zining taraqqiyotini boshidan kechirdi, lekin arablar bosqinidan keyin ularning dunyoqarashiga tog'ri kelmadi.

Shayboniylar va Temuriylar davlati parchalangandan keyin teatr va og'zaki dramaturgiya yangi bosqichga kirdi. Qiziqchilik va masxarabozlik truppalari tashkil topdi.

Jadid dramalari va an'anaviy teatrlar orasida katta farq bo'lishiga qaramay, an'anaviy teatrlar jadid dramalari uchun zamin bo'ldi. Aynan XIX asrning 70 – yillarida Turkistonga rus, ozarbijon, tatar ziyolilari hamda ovroppacha teatrning kirib kelishi

¹ M.Qodirov. O'zbek xalq tomosha san'ati. Toshkent, 1981, 36-37 betlar

natijasida jadid dramalariga yangi ko`rinish va ma'no berdi, zero ularning yordamisiz jadid teatri va dramaturgiyasini tug`ilishini tasavvur qilish mushkul. Ichtimoiy hayot taqazosi bilan jadid dramaturgiyasi va teatri shakllandi, xalqni milliy ruhini kutarish ongini o`stirish kerak va bu orqali erkinlikka erishishni vazifa qilib olingandi bu uchun eng tezroq ta'sir qiladigan va xalq uchun tushunarli bo`lgan soha bu teatr va dramaturgiya edi, chunki aholining ko`p qismi savodsiz bo`lib, tomoshalar orqali milliy uyg`onish g`oyalarini singdirishning eng yaxshi yo`li edi. Boshqa yo`l orqali ham xalqqa erk, milliy ruh tuyg`usini singdirish mumkin edi, ammo dramaturgiya oddiy xalq uchun ta'sir quvvati tezroq va kuchliroq ta'sir etardi. Tomoshadan tushgan pular esa ilm yo`liga sarflanardi.

Jadidlar kurashning siyosiy – madaniy yo`lini tanladi, bu esa o`z navbatida asrarlarning bosh g`oyasiga ta'sir etadi, Jadidlar najodni ma'rifatda ko`rayotgan bir paytda diniy mutassib kishilarning ularga keskin qarshi chiqishiga duch keldilar bu esa vaziyatni yanada yomonlashishiga olib keldi.

Shuhrat Rizayevning “Jadid dramasi” kitobida jadid dramaturgiyasini uch davrga bo`ladi.

- 1) 1911-1916 yillarni o`z ichiga olib bu davr shakillanish davri deb nomlangan
- 2) 1917-1924 yillar taraqqiyot davri deb atalgan
- 3) 1925-1929 yillar fikriy tushkinlik davri deb nomlangan.²

Shu qisqa vaqt ichida jadid adabiyoti tug`ildi, yashadi, o`ldi. Lekin o`zidan so`nmas iz qoldirdi, qisqa vaqt ichida millatga, vatanga katta xizmat qildilar, o`z jonlarini xavfga qo`yib, erk uchun ilm yo`lini tanladilar, balkim tazyiqlar bo`lmaganida dramaturgiya misli ko`rilmagan yaxshi natijalarga erishardi, obrazlar xilma xilligi, ularning psixologiyasidagi kurashlar bundada yorqinlik kasb etardi.

Asardagi obrazlar ichki va tashqi dunyosi xilma xildir va ular ko`plab mavzularni

² Sh.Rizayev. Jadid drammasi. Toshkent, 1997, 113-bet.

qamrab olgan, obrazlarni ko`zatishdan oladigan taassurotlar ham juda boy. Dramatik asarlardagi obrazlar psixologiyasi qay tarzda anglashiladi. Zamonaviy dunyo adabiyotshunosligida asarni psixopaetik nuqtai nazardan tahlil va talqin qiluvchi bir qancha nazariy qarashlar usul va metodlar ishlab chiqilgan. Shulardan biri A.Potebnyaning fikricha, badiiy asarlarda obrazlar muhim bo`lib, har qanday obraz o`ziga xos individual psixologik xususiyatga ega bo`ladi.³

Dramatik asarlarda xati-harakatlar yetakchilik qiladi buni hisobga olgan holda ,qahramon psixologiyasini anglashda quyidagilarga amal qilinadi.

- 1) Qahramonning harakatlariga,o`zlarini tutishiga.
- 2) So`zlari,ohangi,mimikasiga.
- 3) Kiyimlari ham uning fe`l atvorini bilishda yordam beradi.
- 4) O`sha davr ya`ni asarda tasvirlanayotgan qahramonning qaysi muhitda tarbiyalanganiyu, hozirda qaysi davrda yashashi bu ham muhim.
- 5) Yozuvchi tevarak atrofni tasvirlayotganda qahramon ruhiy holatida qanday o`zgarishlar bo`layotganidan xabar berib turadi, ba`zida.

Asarda dialog va manologlardan foydalaniladi, dialogda qahramonlarning so`zidan, harakatlaridan uning psixologiyasini anglasak, monologdan foydalanganda esa to`g`ridan to`g`ri qahramoning ichki dunyosiga kirib boramiz. Bir so`z bilan aytganda qahramonlar ham sahnadagi tirik odamlardir.

Jadid dramalarida obrazlar qanday xarakterlanadi? O`sha davr tuzumidan kelib chiqqan holda qahramonlarning xarakteri asosan erkka, ozodlikka intilish bo`lgan. Deyarli har bir yozuvchi o`z asarida hurriyatga talpingan. Avloniy o`z “tarjimai holi”da “...bizning maqsadimiz zohirda teatr bo`lsa botinda Turkiston yoshlarini siyosiy jihatdan

³ Потебня А.А. Эстетика и поэтика. Москва: Искусство, 1976. а-614 стр.; Потебня А.А. Теоретическая поэтика. Из записок по теории словесностью. www.gumer.ru/potebnya

birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi”Asardagi bosh qahramonlar o`qimishli qilib tasvirlangan, ilimsiz kishilar tasviri bo`lsa, yomon qahramon hisoblanib, hayotda adashgan bo`ladi. Ilimli bo`lishga da`vat qilingan, ozodlik uchun kurash ulug`langan.

Jadid dramalarida obrazlar xilma xildir va ularning psixologiyasi ham turlicha, lekin ular yagona g`oya asosida o`xshashlikka ega, men bu bilan hamma jadid dramatik asarlar demoqchi emasman, ko`plab asarlar, aynan shu davrdagi asarlarda uchratamiz. Erkka intilishni dastlab ilimli insonlar anglab yetishi boshqalarni ham ergashtirishi kabi fikrlar juda chiroyli tarzda bayon etgan bo`lib, albatta bunda g`arbning ahamiyati kattadir. Tariximizda dramatik asarlar rivojlangan payt jadidlar davridir, ziyoli kishilarning bu yo`lda qilgan fidoiyliklari bejiz ketmadi, albatta. Xalqni ilimli qilishning yo`li va bu orqali yorug` kunlarga umid uyg`otish uchun ta`sir doirasi kengroq bo`lgan sahna asarlaridan foydalanish bu juda yaxshi fikr bo`lgan o`sha davr uchun, hozirgi kunda ham teatrlarimizda bir biridan savyali sahna asrlari qo`yiladi, bularning barchasi ma`navyatimizni yuksaltirish uchun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES):

1. Shuhrat Rizayev. Jadid dramasi. -T.1997 y.
2. Botirova Shahlo .Hozirgi o`zbek romanlarida badiiy psixologizm dissertasiya. Qarshi, 2019 y.
3. Izat Sulton. Adabiyot nazaryasi. 1980 y.
4. M. Qodirov. O`zbek xalq tomosha san`ati. Toshkent, 1981, 36-37 betlar
5. Sh. Rizayev. Jadid drammasi. Toshkent, 1997, 113-bet.
6. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. Москва: Искусство, 1976. а-614 стр.;
Потебня А.А. Теоретическая поэтика. Из записок по теории словесностью.
www.gumer.ru/poptebnya